

RAMZIY INTERAKSIONIZMNING ASOSIY TAMOYILLARI

Davronova Feruzabonu Shokir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Nurqulov Bunyod

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11203763>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiologiya fani, ramziy interaksionizmning asosiy tamoyillari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: sotsiologiya, interaksionizm, tamoyil, ramziy.

BASIC PRINCIPLES OF SYMBOLIC INTERACTIONISM

Abstract. This article examined the basic principles of the science of sociology and symbolic interactionism.

Key words: sociology, interactionism, principle, symbolic.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ СИМВОЛИЧЕСКОГО ИНТЕРАКЦИОНИЗМА

Аннотация. В данной статье были рассмотрены основные принципы науки социологии и символического интеракционизма.

Ключевые слова: социология, интеракционизм, принцип, символический.

Sotsiologiya – insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. "Sotsiologiya" lot. *societas* – jamiyat va yun. *logos* – ta'lilot so'zlaridan olingan, jamiyat to'g'risidagi ta'lilot ma'nosini anglatadi. Sotsiologiya jamiyatni yaxlit tizim sifatida o'r ganadigan, ijtimoiy tashkilotlar, jarayonlar va guruhlarni shu tizimning qismlari sifatida tahlil etadigan fandir.

«Ramzli interaksionizm» *sotsiologiyasi.* «Ramzli interaksionizm» tushunchasini amerikalik sotsiolog Gerbert Blumer 1969 yilda fanga kiritgan bo'lib, interaksionizm (inglizcha—interaction) o'zaro ta'sir ma'nosini angla- tadi. «Ramzli interaksionizm» sotsiologiyasi amerikalik faylasuf, sotsiolog va ijtimoiy ruhshunos olim J.Midtomonidan har taraflama rivojlantiriladi.

Ramzli interaksionizmning asosiy kategoriyasi «mohiyat» hisoblanadi. Kishilarning kundalik faoliyati va insoniyatning amaliy dunyosi «mohiyat» bilan bevosita bog'liq bo'lib, odamlar obyektlarga «mohiyat» asosida yonda- shadilar. Natijada narsalar «mohiyatga ega bo'lgan» insonlar uchun muvaf- faqiyatga erishishda asos bo'lib xizmat qiladi. «Ramzli interaksionizm» taraf- dorlarining «mohiyatni» idealistik nuqtai nazardan talqin qilishi

noto‘g‘ridir. Ular bunday noto‘g‘ri talqinni ijtimoiy munosabatlarga kiritishga ham xarakat qiladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishini moddiy olamni tadqiq etuvchi tadqiqotchining qarashlaridan kelib chiqib o‘rganish lozim. Ular insonlar xatti-harakatiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy tashkilotlar, muassasalar va institutlarning o‘rnini inkor etadilar.

J. Mid ijtimoiy munosabatlarni kishilarning amalga oshirmoqchi bo‘lgan xatti-harakatlariga qarshi aloqa yo‘li sifatida tasavvur qiladi. Bu qarshilik unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan imo-ishora yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mohiyatni hal qilishga qaratilgan imo-ishoralar o‘z navbatida ramziy belgiga aylanadi. Mid ijtimoiy nazariyasining markazida kishilar ham nizolarsiz, ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson bilan inson, inson bilan ijtimoiy guruh o‘rtasidagi, guruhiilararo nizolar, jamiyat miqyosidagi nizolar, qolaversa, davlatlar o‘rtasidagi nizo va kelish-movchiliklar shular jumlasidandir. Bu nizo va kelishmovchiliklarni faqat insonlarning aql irodasi ustunligi bilan to‘g‘ri, oqilona hal qilish mumkin va shundagina ijobjiy natijalarga erishiladi.

G’ARBIY YEVROPA SOTSILOGIK MAKTABLARI

O.Kont tomonidan 1839 yilda “Pozitiv falsafa kursi” asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida, birinchi marotoba u jamiyatni ilmiy asosda o‘rganish sifatida sotsiologiya terminini qo’lladi va bu sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. O.Kont tomonidan ta’riflangan insonning intelektual rivojlanishining uchta izchillik bosqichi: teologiyaga oid, metafizik va pozitivik haqidagi qonuni ushbu savolga javob berish uchun imkon beradi.

Birinchi, teologik bosqichda insonning g’ayritabiiy tushunchasi diniy tasavvurlar asosida qurilgan. Ikkinci, metafizik bosqichda inson g’ayritabiy kuchdan voz kechib, mavhum mohiyat sabab va boshqa falsafiy me’yorlar yordamida voqelikni tushuntirishga harakat qiladi. Ikkinci bosqichning vazifasi tanqidiy, avvalgi tasavvurlarni vayron etib, u uchinchi mohiyatni ifodalashdan voz kechib, ular ustidan kuzatish bilan kifoyalanadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o’tish hamma fanlarda bir vaqlarda bo‘lmasada izchillik bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon oddiydan murakkabga (yuqoridan quyiga) tamoyili asosida amalga oshiriladi. O’rganilayotgan obyekt qanchalar oddiy bo’lsa, u yerda pozitiv bilimlar shuncha tez qaror topadi. SHuning uchun pozitiv bilimlar avvalo matematikada, fizikada, astronomiyada, ximiyada, so’ng esa biologiyada tarqaladi.

Sotsiologiya esa bu pozitiv bilimlar cho’qisidir. U o‘z tadqiqotlarida pozitiv uslubga suyanadi. Pozitiv uslub kuzatishlardan to’plangan tajriba va tadqiqotlarni taqqoslash, ishonchli, tekshirilgan, e’tirozni tug’dirmaydigan empirik ma’lumotlar majmuuni nazariy tahlil etishga suyangan. O.Kont tomonidan jamiyat haqidagi fanni shakllantirishda mehnat taqsimoti va koperatsiyalashning zarurligi haqidagi qonunning ochib berilishi navbatdagi muhim yakun

bo'ladi. Bu omillar jamiyat tarixida juda katta ijobiy ahamiyatga ega. SHu tufayli sotsial va kasbkorlik guruhlari yuzaga keladi, jamiyatning xilma-xilligi o'sadi va odamlarning moddiy farovonligi ko'tariladi. O.Kont o'z qarashlaridan kelib chiqib, sotsiologiyani ikki qismga: sotsial turg'unlik va sotsial jo'shqinlikka bo'ladi.⁶ Sotsial turg'unlik ijtimoiy tuzumlarning amal qilish sharoitlari va qonuniyatlarini o'rgatadi. O.Kont sotsiologiyasining ushbu bo'limida asosiy ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din, ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy funksiyalari va ularning birdamlik va hamkorlikni o'rnatishdagi rollari ko'rib chiqiladi. Sotsial jo'shqinlikda O.Kont insonni ma'naviy, aqliy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini rivojlantiradi.

O.Kontning ko'pgina g'oyalari, avvalo tabiat va jamiyat haqidagi fanlarning ijobiy ko'rsatmalaridan sotsiologiyada foydalanish, shuningdek yaxlit sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib uni rivojlantirgan mutafakkirlardan biri Gerbert Spenserdir.

(1820-1903). O.Kont kabi G.Spenser ham keng ma'lumotga ega bo'lgan olim, o'z davrining buyuk aql egalaridan biri hisoblanadi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bo'yicha qator jiddiy asarlar muallifidir. G.Spenserning asosiy asari "Sintetik falsafa sistemasi" bo'lib, unda tabiiy va sotsial voqealarining tarixiy rivojlanishi haqidagi chuqur qarashlarini bayon etgan.

G.Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid matabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini "Ilmiy, siyosiy va falsafiy tajribalar" asarida atroflicha bayon etgan. G.Spenser jamiyatni tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanushi organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik organizmga o'xshatadi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida u quyidagi dalillarni keltiradi:

1. Jonli organizm sifatida har qanday jamiyat ham o'sish va rivojlanish jarayonida o'z massasida ortib boradi;
2. U va boshqalari murakkablashadi;
3. Uning qismlarining tobora bir-biriga bog'liqligi kuchayib boradi;
4. Uni tashkil etgan birliklar goho paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishiga qaramay, bir butun holda yashashni davom ettiradi.

G.Spenserning sotsial, shuningdek evolyutsiya nazariyasi katta qiziqish uyg'otadi.

Evolyutsiyada u quyidagi asosiy jihatlarni ajratadi: oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya); bir turdan xilma-xillikka o'tish (differensiatsiya, noaniqlika o'tish tartibining o'sishi). Sotsial evolyutsiya bu – jamiyatning murakkablashuvi yo'lidagi progressiv rivojlanish va sotsial, avvalo siyosiy institutlarni takomillashtirish sohasidagi faoliyatdir. U sotsial evolyutsiyaning odamlar ehtiyojlari bilan obyektiv bog'langanligini ko'rsatadi. Dyurkgeym "Sotsiologiya uslubi" nomli asarida sotsiologiya sohasidagi jamiyat rivojlanishi nazariyalarini

ishlab chiqishga e'tiborini qaratib, sotsial omillarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan tavsiotlarni yaratish ustida shug'ullangan. Sotsiologiya, - deb yozadi u, sotsial dalillar xaqidagi fan bo'lib, uning ostida siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa g'oyalar, qoida va qadriyatlar yotadi.

Dyurkgeym fikricha, sotsial voqealikning yakuniy sabablari bo'lib, amaliyotda ro'yobga oshiriladigan odamlarning g'oya va madaniy qadriyatlari hisoblanadi. Aynan ana shunda, u har qanday sotsial evolyutsiyaning manbai mavjudligini ko'radi. Bunda so'z jamoaviy ongni namoyon bo'lishi sifatidagi g'oyalar va ma'naviy qadriyatlар ustida boradi.

REFERENCES

1. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 174 – 223.
2. Абдурахмонов Ф.Р., Сайтходжаев Х.Б. Социология. – Т., 2005. – Б. 214 – 221.
3. Осипов Г.В., Москвичев Л.Н. Социология. – М., 2003. – Б. 713 – 745, 753 – 799.
4. Социология / Проф. В. М. Каримова таҳрири остида. – Т., 2000. – Б. 161 – 200.
5. Умумий социология / Илмий муҳаррир фалсафа фанлари доктори М.С.Алиқориев. – Т., 1999. – Б. 146 – 176. 6. Хан С.М., Хан В.С. Социология. – Т., – С. 204–221.
6. Dzhiyanmuratova G. Factors Determining the Behavior of Young Voters //Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777). – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 96-100
7. Sherbutayevna J. G. ABSENTEIZM IJTIMOIY HODISA SIFATIDA //Research and Publication. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 4-10.
8. Jiyamuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:W7OEmFMy1HYC